“22-may xalqaro biologik xilma-xillik kuni” munosabati bilan press-tur tashkil etildi

22-may Xalqaro bioxilma-xillik kuni sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizda tabiat muhofazasi, ekologik barqarorlik va bioxilma-xillikni saqlash, qayta tiklashga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo’nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan keng jamoatchilikni yaqindan tanishtirish maqsadida OAV vakillari uchun joriy yil 21-may kuni O’zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni o’rganish, elektron hujjatlashtirish va tadqiqotlarning amaliy natijalarini amaliyotga tadbiq qilish borasidagi ilmiy faoliyat yo’nalishlari bilan bevosita tanishish maqsadida Botanika instituti O’zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) hamda Botanika bog’ida tashkil etilgan Toshkent piyozlar bog’i (Global Allium Garden) ga press-tur uyushtirildi.



Press-tur ishtirokchilari dastlab O’zbekiston Milliy gerbariysi, u yerdagi ilmiy xodimlarning ish jarayoni, gerbariyni yanada boyitish va uni raqamlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishdilar.

O’zbekiston Milliy gerbariysi Markaziy Osiyodagi eng yirik botanik kolleksiya, dunyodagi 3750 dan ortiq gerbariylar orasida birinchi 30 talik tarkibiga kiruvchi noyob ilmiy obyekt hisoblanadi. 1830-1835-yillardan boshlab to’plangan bu gerbariy kolleksiyasi hozirgi kunga kelib 1.5 mln dan ortiq namunalarni o’z ichiga olgan va bu ko’rsatkich bilan Osiyo mintaqasidagi yirik 4 ta gerbariylar qatoriga kiradi. O’zbekiston milliy gerbariysi Index Herbariorum (http://sweetgum.nybg.org/science/ih/) katalogida TASH akronim bilan ro’yxatdan o’tgan.





O’zbekiston hududidan terilgan dastlabki namunalar 1900-1905-yillarga to‘g’ri keladi. Ayni paytda esa mamlakatimiz sarhadlaridan to’plangan gerbariy namunalari Milliy gerbariyning asosiy qismini tashkil etadi. Gerbariyning Tiplar kollektsiyasi 3000 dan ortiq namunalarni o’z ichiga oladi va ular fan uchun yangi deb topilgan o’simlik turlarining ilk namunalari, ya’ni, shu o’simlik turining “pasporti” hisoblanadi. Tip namunalari kollektsiyasi to’liq raqamli formatga o’tkazilgan.



O’zbekiston Milliy gerbariysi mamlakatimizdagi botanik tadqiqotlarning asosi hisoblanadi. Flora, o’simliklar sistematikasi va geografiyasi, o’simliklar qoplami, resursshunoslik borasida olib boriladigan barcha tadqiqotlar aynan gerbariy fondiga tayanadi. Bundan tashqari, botanika faniga yondosh bo’lgan bir qator fan yo’nalishlari, jumladan, biokimyo, farmatsevtika, genetika borasidagi tadqiqotlarda ham gerbariy kollektsiyasining o’rni ortib bormoqda.

So’ngra press-tur ishtirokchilari 2018-yilda “Bir makon - bir yo’l” tashabbusi doirasida va boshqa tashkilotlarning 12 yetakchi olimlari va rahbarlari bilan hamkorlikda O’zR FA Botanika instituti huzuridagi akad. F.N.Rusanov nomidagi Botanika bog’ida tashkil etilgan Global Allium Garden Toshkent markazida ham bo’lishdi. Ayni paytda Piyozlar bog’ida Markaziy Osiyo, Xitoy, Eron, Kavkaz va O’rta Yer dengizi florasiga mansub 100 dan ortiq turlar parvarish qilinmoqda.





Markaz dunyo florasidagi yovvoyi piyoz turlarini saqlab qolish Global Allium Garden xalqaro dastur doirasida tashkil etilgan va Markaziy Osiyodagi yovvoyi piyozlarni o’rganish va saqlab qolish vazifasini bajarishga ixtisoslashtirilgan.